



PEDAGOGLAR MALAKASINI OSHIRISHNING MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIGA TA'SIRI: TAHLIL VA TAVSIYALAR

Sadullayeva Aziza Ismatullayevna

Buxoro viloyati, Peshku tumani, 5-Davlat maktabgacha ta'lism tashkiloti direktori

Annotatsiya: Ushbu maqolada pedagog kadrlar malakasini oshirish jarayonining maktabgacha ta'lim tizimiga ko'rsatayotgan ta'siri tahlil qilinadi. Mavjud muammolar va ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar keltiriladi. Shuningdek, zamonaviy metodik yondashuvlar, ilg'or tajribalar va ta'lim sifati o'rta sidagi o'zaro bog'liqlik asosida tahlillar olib boriladi. Tadqiqotda maktabgacha ta'lim muassasalarida malaka oshirish kurslarining amaliy samaradorligi, pedagogik kompetensiyani rivojlantirishdagi o'rni va tizimni takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: pedagog malakasi, maktabgacha ta'lism, ta'lim sifati, metodik yondashuv, malaka oshirish, pedagogik kompetensiya, taklif va tavsiyalar.

Аннотация: В данной статье рассматривается влияние процесса повышения квалификации педагогических кадров на систему дошкольного образования. Приводится анализ существующих проблем и предлагаются рекомендации по их устранению. Особое внимание уделяется взаимосвязи между современными методическими подходами, передовым опытом и качеством образования. В исследовании рассматривается практическая эффективность курсов повышения квалификации в дошкольных образовательных учреждениях, их роль в развитии педагогической компетентности, а также даются предложения по совершенствованию системы.

Ключевые слова: педагогическая квалификация, дошкольное образование, качество образования, методический подход, повышение квалификации, педагогическая компетентность, предложения и рекомендации



Abstract: This article examines the impact of teacher professional development on the preschool education system. It analyzes existing challenges and provides recommendations for their resolution. Special emphasis is placed on the interconnection between modern methodological approaches, best practices, and education quality. The study evaluates the practical effectiveness of professional development courses in preschool institutions, their role in enhancing pedagogical competence, and offers suggestions for system improvement.

Keywords: teacher qualification, preschool education, education quality, methodological approach, professional development, pedagogical competence, suggestions and recommendations

Kirish

Maktabgacha ta’lim – shaxs shakllanishing eng muhim bosqichlaridan biri bo‘lib, bolalarning jismoniy, ruhiy, aqliy va ijtimoiy rivojlanishiga asos soladi. Shu boisdan, ushbu tizimda faoliyat yuritayotgan pedagoglarning kasbiy tayyorgarligi va malakasi ta’lim jarayonining sifati hamda samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. ¹Bugungi globallashuv davrida ta’limga qo‘yilayotgan talablar ortib borayotgan bir paytda, maktabgacha ta’lim muassasalarida ishlayotgan pedagoglar doimiy o‘z ustida ishlashi, yangilanishi, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va metodikalarga ega bo‘lishi dolzarb masalaga aylanmoqda.

Pedagoglar malakasini oshirish nafaqat ularning bilim va ko‘nikmalarini boyitadi, balki ta’lim muassasasining umumiy rivojlanishiga, bolalar bilan ishlashda sifatli yondashuvga, tarbiyaviy ishlar samaradorligiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli, malaka oshirish jarayoni tizimli, maqsadli va amaliyotga yo‘naltirilgan bo‘lishi zarur. Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasi tomonidan ta’lim sohasini isloh qilish, xususan, maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirish borasida qator qonuniy-huquqiy asoslar, davlat dasturlari, farmon va qarorlar qabul qilinmoqda. Bularning barchasi pedagog kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash tizimini ham takomillashtirishni talab etadi. Afsuski, mavjud tajriba shuni ko‘rsatmoqdaki,

¹ Qodirova M. *Maktabgacha ta’lim pedagogikasi*. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2021. – 256 b.



ba’zi hududlarda pedagoglarning malaka oshirish kurslarida ishtiroki faolligi past, o’quv dasturlari zamonaviy ehtiyojlarga to‘liq javob bermaydi, va amaliy faoliyat bilan bog‘lanmagan holda tashkil etilmoqda. Bu holat esa ta’lim sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu jihatdan, pedagogik kadrlar malakasini oshirish tizimini chuqur o‘rganish, mavjud muammolarni tahlil qilish va ularni bartaraf etish bo‘yicha aniq takliflar ishlab chiqish dolzARB masala hisoblanadi.²

Malaka oshirish yo‘nalishi	Ta’sir natijasi
Interaktiv metodlarni o‘rgatish	Darslarda bolalarning faolligi oshadi
Psixologik-pedagogik bilimlarni chuqurlashtirish	Har bir bolaning individual rivojlanishiga e’tibor ortadi
Innovatsion texnologiyalarni o‘rgatish	O‘quv jarayonida zamonaviy yondashuvlar paydo bo‘ladi
Amaliy mashg‘ulotlarga asoslangan kurslar	Nazariy bilimlar real ishda qo‘llaniladi
Masofaviy ta’lim vositalaridan foydalanish	Pedagoglar istalgan vaqtida bilimini oshirish imkoniga ega

1-jadval. Pedagoglar malakasini oshirish yo‘nalishlari va ularning ta’siri

Pedagoglar malakasini oshirish jarayonining muktabgacha ta’lim tizimiga qanday ta’sir ko‘rsatishi tahlil qilinadi. Shuningdek, mavjud muammolar yoritilib, ularni hal qilish yo‘llari, zamonaviy yondashuvlar, ilg‘or tajribalar asosida taklif va tavsiyalar keltiriladi. Pedagogik kadrlarning malakasini oshirish – bu ta’lim sifatini oshirish yo‘lida muhim bosqich hisoblanadi. Ayniqsa, muktabgacha ta’lim tizimi uchun bu jarayonning ahamiyati nihoyatda katta, chunki aynan shu bosqichda bola shaxs sifatida shakllanadi, uning dunyoqarashi, nutqiy rivoji, hissiy-intellektual salohiyati poydevori qo‘yiladi. Shu sababli, muktabgacha ta’lim muassasalarida

² Nazarova F., Mamatqulova N. *Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiyalar*. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2019. – 180 b.



faoliyat yuritayotgan pedagoglarning malakali, zamonaviy yondashuvlarga ega, psixologik-pedagogik bilimlar bilan qurollangan bo‘lishi jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri sifatida qaraladi.

O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimini isloh qilish doirasida maktabgacha ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ta’lim mazmunini yangilash, malakali pedagog kadrlar bilan ta’minalash bo‘yicha bir qator muhim chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, pedagoglar uchun muntazam ravishda malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslari tashkil etilmoqda. Ushbu kurslar orqali ularning zamonaviy ta’lim texnologiyalari, metodik yondashuvlar, interaktiv usullar va bolalarning individual xususiyatlariga mos yondashish bo‘yicha bilim va ko‘nikmalari oshirilmoqda. Biroq amaliyot shuni ko‘rsatadiki, bu kurslarning barchasi ham bir xil darajada samarali emas. Ba’zi holatlarda kurslar nazariy bilimlar bilan cheklanib qolmoqda, amaliy mashg‘ulotlarga e’tibor yetarli darajada qaratilmayapti. Pedagoglar kundalik ish faoliyatiga tatbiq eta olmaydigan, real sharoitga mos kelmaydigan bilimlar bilan cheklanib qolmoqda. Shuningdek, ayrim hududlarda malaka oshirish kurslarida ishtirok etishning ixtiyoriligi yoki tashkiliy muammolar sababli ularda qatnashish darajasi past bo‘lishi mumkin.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, malaka oshirish jarayonini sifat jihatidan takomillashtirish muhim masala hisoblanadi.³ Eng avvalo, bu kurslar amaliyotga yo‘naltirilgan, interaktiv usullarga asoslangan va har bir pedagogning kasbiy ehtiyojlariga moslashtirilgan bo‘lishi kerak. Har bir o‘quv mashg‘uloti pedagogni o‘ylashga, yangilikka intilishga, o‘z ustida ishlashga undashi lozim. Shuningdek, malaka oshirish kurslarining mazmunini ishlab chiqishda pedagoglarning fikri, muammolari va takliflari inobatga olinishi maqsadga muvofiq. Zamonaviy maktabgacha ta’lim tizimi ko‘plab chaqiriqlarga duch kelmoqda: raqamlashtirish, psixologik muammolar, nutq rivoji bilan bog‘liq muammolar, ota-onalar bilan samarali hamkorlik qilish zarurati, ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar va h.k. Bunday

³ Norqobilova Z. *Maktabgacha ta’limda zamonaviy yondashuvlar*. – Samarqand: Samarqand Davlat Universiteti nashriyoti, 2020. – 144 b.



sharoitda pedagog nafaqat ta’lim beruvchi, balki maslahat beruvchi, kuzatuvchi, muammolarni hal qiluvchi, bolaning imkoniyatlarini rivojlantiruvchi sifatida faoliyat yuritishi kerak. Bu esa, o‘z navbatida, undan yuqori malakani, doimiy rivojlanishni, zamonaviy bilimlarga ega bo‘lishni talab qiladi.

Bundan tashqari, pedagogik malaka oshirish tizimida innovatsion yondashuvlar, masofaviy ta’lim texnologiyalari, modulli o‘quv dasturlari joriy qilinishi zarur. Har bir pedagog uchun individual rivojlanish yo‘nalishlari ishlab chiqilishi, ularning yutuqlari, ehtiyojlari va kamchiliklari asosida shaxsiy rejalashtirish amalga oshirilishi kerak. Bu orqali ularning kasbiy o‘sishi tizimli va samarali yo‘lga qo‘yiladi. Yana bir muhim jihat – bu baholash tizimi. Pedagoglar malaka oshirish kurslarini tugatgandan so‘ng, ularning bilim va ko‘nikmalarini real amaliy faoliyatda qanday qo‘llayotgani monitoring qilinishi zarur. Bu holat har bir malaka oshirish jarayonini sifat jihatdan nazorat qilish, uni rivojlantirish va kerakli tuzatishlar kiritish imkonini beradi.

Maktabgacha ta’lim sifatini oshirishda pedagoglarning malakasini oshirish hal qiluvchi o‘rin egallaydi. Mazkur jarayonni tizimli, yangicha va amaliyotga yo‘naltirilgan tarzda tashkil etish, har bir pedagogning ehtiyoj va imkoniyatlarini inobatga olish orqali ta’lim tizimida sifatli o‘zgarishlarga erishish mumkin.

Xulosa

Maktabgacha ta’lim tizimida ta’lim sifati va samaradorligini ta’minlash bevosita pedagoglarning kasbiy tayyorgarligi, yangilanishga bo‘lgan intilishi va malaka darajasiga bog‘liq. Ushbu maqolada olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, pedagog kadrlarning malakasini oshirish tizimi faqatgina kurslar tashkil etish bilan cheklanmasligi, balki chuqur tahlil, ehtiyojga asoslangan rejalashtirish va amaliyotga yaqinlashtirilgan o‘qitish jarayoni orqali rivojlantirilishi zarur.

Hozirgi kunda respublikamizda maktabgacha ta’limga bo‘lgan e’tibor yuqori darajaga ko‘tarilgan bo‘lsa-da, ushbu tizimda faoliyat yuritayotgan pedagoglarning kasbiy rivojlanishini izchil va sifatli yo‘lga qo‘yishda hali hal qilinishi lozim bo‘lgan bir qator muammolar mavjud. Jumladan, ayrim holatlarda malaka oshirish kurslari bir xillik, nazariylik va takroriylikdan iborat bo‘lib qolmoqda. Bu esa ularning real ish



faoliyatida qo'llanilishi va samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Pedagoglar malakasini oshirishga oid faoliyatlar asosan tashkiliy darajada olib borilmoqda, ularning individual ehtiyojlari, kasbiy yo'nalishlari va amaliy tajribasi ko'p hollarda inobatga olinmayapti. Shu munosabat bilan, maktabgacha ta'lim tizimi uchun samarali malaka oshirish tizimini tashkil etish quyidagi asosiy yo'nalishlarda amalga oshirilishi kerak deb hisoblaymiz:

Kurs dasturlarini amaliyatga yo'naltirish, ya'ni nazariy bilimlarni real ta'lim sharoitlarida qo'llay olish ko'nikmalariga e'tibor qaratish;

Interaktiv, innovatsion o'quv metodlaridan foydalanish, shu jumladan, raqamli texnologiyalar va masofaviy o'qitish platformalarini joriy etish;

Pedagoglarning ehtiyojlari asosida shaxsiy rivojlanish rejalarini tuzish va bu rejalarining bajarilishini monitoring qilish;

O'qituvchilarining faoliyati samaradorligini baholash tizimini yo'lga qo'yish, ularning bilim va ko'nikmalarini real amaliy faoliyatda qanday qo'llayotganini kuzatish va rag'batlantirish.

Shuningdek, malaka oshirish jarayonining natijalari nafaqat pedagoglar, balki butun ta'lim jamoasi, bolalar va ularning ota-onalari tomonidan ham sezilishi kerak. Bu orqali ta'lim tizimiga bo'lgan ishonch, pedagog kasbiga bo'lgan hurmat va jamiyatdagi ijtimoiy o'rin mustahkamlanadi. Malakali pedagog – bu faqat yaxshi dars o'tadigan emas, balki bola ruhiyatini, ehtiyojini, iste'dodini anglay oladigan, u bilan muloqot o'rnatana oladigan, har bir kichik yutuqqa turki bera oladigan fidoyi insondir.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, maktabgacha ta'lim tizimida sifatli pedagogik faoliyatni ta'minlashda malaka oshirish muhim omillardan biridir. Ushbu jarayonni to'g'ri yo'lga qo'yish orqali nafaqat pedagoglarning kasbiy o'sishini, balki bolalarning har tomonlama barkamol bo'lib voyaga yetishini ta'minlash mumkin. Shu boisdan ham kelajakda ushbu yo'nalishda tadqiqotlar, monitoringlar va innovatsion yondashuvlar asosida tizimli islohotlar amalga oshirilishi lozim.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Karimov I.A. *Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch.* – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – 176 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha ta'lif tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2707-sonli Qarori. – Toshkent, 2017 yil 29 dekabr.
3. Qodirova M. *Maktabgacha ta'lif pedagogikasi.* – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2021. – 256 b.
4. Nazarova F., Mamatqulova N. *Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiyalar.* – Toshkent: "Fan va texnologiya", 2019. – 180 b.
5. Norqobilova Z. *Maktabgacha ta'linda zamonaviy yondashuvlar.* – Samarqand: Samarqand Davlat Universiteti nashriyoti, 2020. – 144 b.
6. Raxmatova M. *Kasbiy pedagogik tayyoragarlik asoslari.* – Toshkent: O'zbekiston nashriyoti, 2022. – 168 b.
7. Bahronova M. *Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishida pedagogning o'rni.* – "Ilm sarchashmalari" ilmiy jurnali, 2023, №2, B. 45–50.
8. Mavlonova R. *Innovatsion pedagogika asoslari.* – Toshkent: "Iqtisodiyot", 2021. – 190 b.
9. <https://www.maktab.uz>
10. <https://edu.uz/uz/pages/retraining>